



«Amir Temurni anglash o'zligimizni
anglash demakdir».

I. Karimov

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2008-yil
7-aprel
N:15
(66660)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

DUSHANBADAN

TO'YGA TARADDUD

Azim poytaxt Toshkent boy tarixga ega shahar. Aziz o'quvchilar! Xabaringiz borki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qaroriga ko'ra, Toshkent shahrining 2200 yilligi 2009- yilning may oyida nishonlanadigan bo'ldi.

**«YOSH QALAMKASHLAR»
TO'GARAGIGA MARHAMAT!**

Qadrli yosh qalamkashlar, eshitmadim demanglar, gazetamiz qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Istiqlol umidlari» to'garagi oyda ikki bor mashg'ulot o'tkazadi. Qalamimni charxlayman, mahoratimni oshiraman, deydigan yosh ijodkorlarni har oyning 1- hamda 15-sanasida tahririyat binosiga taklif etamiz.

G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!

O'tgan hafta O'zbekiston Davlat konservatoriyasida yosh musiqachilarning «San'at g'unchalari» respublika ko'rik-tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Xabaringiz bor, tanlovda 9-14 yoshli bolalar ishtirok etishdi. 70 nafardan ziyod yosh iqtidor sohiblari yakuniy bosqichda bellashdilar.

Diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlangan g'oliblarni qutlaymiz!

OTCHOPARDA KO'PKARI

Jizzax o'tchoparida 16-18 yoshli o'smirlar o'rtasida uloq-ko'pkari bo'yicha respublika chempionati bo'lib o'tdi. Unda mezbonlar oltin, Toshkent viloyati polvonlari kumush, Samarqand va Farg'ona viloyatlari vakillari bronza medallari bilan taqdirlandilar.

TASHAKKUR

Kuni kecha Surxondaryodan xushxabar oldik: vohadagi gazetamiz muxlislari soni yana 156 nafarga ortibdi.

Obuna ishlariga, demakki, farzandlarimiz ma'naviyatini boyitishdek xayrli ishga bosh bo'lgan insonlarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.



Suratda: Gazetamizning muhllisasi Nargiza RAHIMJONOVA (uning «Lolaqizg'aldoq» qatrasini 8-betda o'qiysiz).

OBUNA BO'LISHGA ULGURASIZ

Aziz o'quvchilar! Eng sevimli va eng arzon gazetangizga


OBUNA

davom etmoqda. Istalgan aloqa bo'limlarida qadrdon gazetangizga obuna bo'lishingiz mumkin.

DUSHANBAGACHA

QAND YONADIMI?

Mendeleyev davriy sistemasidagi nechta elementni yoddan bilasiz? Orangizda kimyo faniga qiziquvchi o'quvchilar talaygina ekaniga e'tibor berganmisiz? Maktablarda o'tkazilayotgan kimyo oyligi bunday o'quvchilarni aniqlab berdi. Sergeli tumanidagi 104-maktabda «Kimyo mo'jizalar ilmining kalitidir» mavzusida festival bo'lib o'tdi. Tumandagi barcha maktablar ishtirokidagi bu festivalga maktabimiz rahbari Adiba opa Karimova va xalq ta'limi bo'limi kimyo-biologiya fanlari bo'yicha uslubchi Nodira opa Alimova bosh-qosh bo'lishdi. Kimyo fani o'qituvchisi Shoira opa Jumanova va 9-«B» sinf o'quvchilari tomonidan tayyorlangan D.I. Mendeleyev tavalludining 172 yilligiga bag'ishlangan tadbir ham o'tkazildi. «Olovsiz tutun», «Tuxum ustidagi tajribalar», «Qand yonadimi?» tajribalari o'quvchilarni hayratlantirdi. O'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini yana-da oshirish maqsadida sahnalashtirilgan sahna ko'rinishlari festivalning jonli o'tishini ta'minladi.



Gulsanam SOBIROVA,
Sergeli tumani politexnika kasb-hunar kolleji

BELLASHUVDA G'OLIB BO'LDIM



– Namuna, yaqinda o'qish fani bo'yicha tumanlararo Olimpiada bo'lishidan xabaring bor. Yaxshilab tayyorlanishni unutm. Sendan sinfdoshlaring, ustozlaringning umidi katta. Menimcha, sen ularni uyaltirib qo'y-maysan.

Ustozimning bu so'zlaridan so'ng Olimpiadaga astoydil tayyorlana boshladim. Men faqat 1-o'rin sohibi bo'lishni orzu qila boshladim. Olimpiadaga kelishdan avval juda

hayajonlandim. Turli maktabdan kelgan tengdoshlarim orasida o'zimni yo'qotib qo'yishimga sal qoldi. Ustozim Lola Turdiqulovning daldalaridan so'ng o'zimni qo'lga olib, berilgan shartlarni astoydil bajarishga kirishdim. Chunki bizning 274-maktab o'quvchilari ko'pincha Olimpiadalarda birinchilikni qo'ldan bermaydilar-da! Men ham shunga harakat qildim. Ifodali o'qish, hikoya tuzish, she'r yodlab berish bo'yicha o'tkazilgan bellashuvda g'olib bo'lganimdan boshim osmonga yetdi. Olimpiadada 1-o'rinni qo'lga kiritganimdan nafaqat men, balki ota-onam, ustozim va do'stlarim ham xursand bo'lishdi. Bundan keyin ham yaxshi o'qib, ota-onam va ustozimning ishonchlarini oqlashga harakat qilaman.

Namuna ZOKIROVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi

MEHRIBONLAR, SIZGA MING RAHMAT!

Men hamma bolalarning otanasini bo'lishini istayman. Toki, dunyoda hech kim, hech kimdan kam bo'lmasin. Hamma bolalarning ham baxtli bo'lishga haqqi bor.


Oramizda shunday mehribon ota-onalar ham borki, ularning o'z farzandlari bo'la turib, «Mehribonlik uylari»dagi mehrga zor bolalarni tarbiyalamoqchi bo'lishadi. Bunday ota-onalardan xursand bo'lib ketaman.

Mehribonlar, sizga ming rahmat, degim keladi.

Zuhra SOLIHOVA,
poytaxtdagi 97-maktabning 9-sinf o'quvchisi

UYG'OTUVCHI YOSTIQ

Kim uyg'otuvchi qo'ng'iroqli soatni xush ko'radi? Nazari-mizda, uni ko'pchilik yoq-tirmasa kerak. U qanchalik kerakli bo'lmasin, char-chog'ingiz chiqayotgan payt – uxlayotganingizda oromingizni buzishi har qalay yoqimli tuyulmaydi, to'g'rimi?



Biroq, tinib-tinchimas olimlar ushbu «muammo»-ning ham yechimini topishdi. Ular «qo'rqitmay» uyqudan turg'iza oladigan maxsus yostiq kashf etishdi. Uyg'otuvchi yostiq «Glo Pillow» deb nomlandi.

Yangicha turdagi yostiq (yoki uyg'otuvchi moslama) hech qanday asabga tegadigan ovoz chiqarmaydi, u pult bilan boshqariladi, maxsus yumshoq materiallardan tayyorlangan. Bu jihoz uyqudagi odamni chiroq bilan uyg'otadi. Ya'ni, uyqudan turadigan paytga 40 daqiqa qolgandan boshlab chiroq asta-sekin pog'onama-pog'ona nur chiqara boshlaydi. Turish belgilangan vaqtga kelib esa yostiqdan kishini uyg'ota oladigan darajadagi yorug'lik taraladi.

Bunday uyg'otish «moslama»si sog'liqqa – asabni asrashga xizmat qilishdan tashqari, tabiat nuqtayi nazaridan ham foydali: mazkur «turg'izish jarayoni» sabab to'g'ri bioritmni vujudga keltirish mumkin.

BILASIZMI?

Kameliya deb ataluvchi chiroyli gulni bilasizmi? Bu gul soat ishlab chiqarish sanoatining yuragi hisoblanadi. Bu guldun soat mexanizmlari uchun maxsus moy tayyorlanadi.

* * *

Dunyodagi eng tez o'sadigan daraxt pavloniyadir. U bir mavsumda yetti metr balandlikkacha bo'y cho'zadi.

* * *

Qadimiy Rimda limonni zaharli deb hisoblashgan va undan kuyaga qarshi foydalanishgan ekan.

* * *

Saksovul saholarda o'sadigan o'simlik hisoblanib, namlikka dosh bera olmaydi. Tanasiga suv tegdimi, shu zahoti nobud bo'ladi.

D.HOTAMOVA
tayyorladi

Otam hovliga kirishlari bilan og'ilxona yonida ovozi o'chib yotgan molimiz ustma-ust bo'kirishga tushdi. Demak, qorni och, otamning kelishini payqagan. Negaki, har kuni dalalardan uning ham bir bog' -yarim bog' ulushi kelardi. Bugun-chi? Biz bolalar otamning oldilariga yugurdik. Dimog'imga achchiq terning hidi urildi.

– Molga o't bermadinglarmi? – baqirib berdilar otam. Onam gunohkorday yer chizdi.

– Xashak qolmagan ekan. Siz olib kelasizmi, deb o'ylabman.

– Shuncha bola nima qiladi xashak yig'may?..


Otamning vajohatidan o't chaqnadi. O'shanda u kishining qattiq g'azabga to'lganliklarini ko'rganmiz, hammamiz timirskilanib qoldik. Men uchinchi sinfda o'qirdim. Yugurib omborxonaga kirdim-da, tagi qurib qolganiga besh-olti kun bo'lgan unli xaltani qo'limga oldim. Uch aka-uka birdan ko'chaga otildik. Yozning issiq kuni qishloq bilan tutashib ketgan paxta maydonlari bizni o'z bag'riga oldi. Chopiqchilar changini chiqarib ketgani uchun dalada bir dona ham o't yo'q edi. Boryapman, hech yo'qki **1** xaltamga o't

tushsa... Paxta maydoni bilan yonma-yon gurkirab turgan bedapoyaga ko'zim tushdi. Yam-yashil bedazor ichida bedanalarning go'zal sayrog'i tinmaydi. Lekin bu bedapoyadan hech kim jur'at etib beda olmagan. Sababi, qorovuli chatoq odam. Hazrat bobo uning nomini eshitsu, bolalarning mazasi qochadi. U o'z o'g'lini ayamaydigan odam. Haqorat-chi. O'g'rilarni jini yoqtirmaydi.

Hozir ayni tush payti bo'lgani uchun odamlar bir zum bo'lsa-da, dalalarni tark etishgan. O'zimni ohista bedazorga urdim. Beda o'g'irlashga qo'lim bormagan bo'lsa-da, asta bedalarga chirmashib qolgan chirmovuqlarni yula boshladim. Xaltam yarim bo'ldi. Hazrat bobo kelmay turib dalani tark etmasam, baloga qolaman, deb o'yladim. Asta bedapoyadan katta yo'lga chiqib oldim. Keyin bilmayman. Hazrat bobo yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, nima bo'lganda ham meni ko'rdi. Qo'lida o'roq dag'-dag' titardi.

– Senlardan qachon qutulamiz? Eh, senlarni... Odamni tushlik payti ham besh daqiqa dam **2** o l i s h g a qo'y-maysanlar, – **2** Hazrat bobo

Axtamqul KARIM



BOLAMGA TUHMAT

dunyodagi bor haqoratni qilib men tomon yugurardi. Jon-jahdim bilan xaltamni yelkamga urib qochdim. Xaltamda bor bo'lsa, uch-to'rt kilo xashak bor edi. Qo'rqqanga qo'shaloq ko'rinadi, deganlari rost ekan. Xayolimda Hazrat boboning sovuq vajohati. Go'yo u hozir o'rog'i bilan boshimni sapchadek yulib oladiganga o'xshardi. Otam yaqindagina «Regar» bozoridagi lattafurushlardan olib bergan shim menga kattaroq bo'lgani uchun pand berdi. Belimni tark etib nuqul pastga tushadi. Oxiri shimning pochasisiga oyoqlarim chalishib yiqilib tushdim. Yelkamdagi xalta uch-to'rt metr oldinga otilib ketdi. Tizzam, k a f t l a r i m **3** shilindi. Oldinga

O'smirlilik xotiralari

yugurgan jangchidek o'rnimdan zo'rg'a turdim-da, mardlik bilan xaltamni olib oldinga intildim. Hazrat bobo menga yaqinlashib qolgandi, jon-jahdim bilan o'zimni darvozasi ochiq turgan hovlimizga urdim. Xaltamni hovliga otib, tomorqadagi makkapoya ichiga

bekindim. Hazrat bobo erinmasdan baqir-chaqir qilib uyimizga bostirib kirdi. Onam chiqdilar.

– O'g'lingni yig'ishtirasanmi, yo'qmi? Kolxozni bedasini o'g'irlab ado qildi-ku. Ertaga ustidan akt yozib raisga boraman.

Onamning ranglari oppoq oqardi.

– Hay-hay tog'a-ya, bolamga tuhmat qilmang. Keksa odamsiz. Mening bolalarim hech qachon o'g'irlik qilmagan, qilmaydi ham, – dedilar ishonch bilan. O'shanda o'zimni dunyodagi eng katta jinoyatchidek his etganman. Hazrat boboning raisga olib boraman deganlarini eshitib, badanimni rosa titroq tutgan. Hazrat bobo ham bo'sh kelmadi. Hovlida turgan **4** tanish xaltani

O'zbek bolalar adiblari



Asqad MUXTOR
(1920 – 1997)
Atoqli shoir va nosirning «Chinor» romani mashhur.



Hamidulla YOQUBOV
(1921 – 2001)
«O'n bola», «Quyosh sovg'asi» kabi kitoblari nashr etilgan.



Obid RASUL
(1922 – 2001)
Uning «Quvnoq bolalar», «Keling bizning polizga» kitoblari bolalarga atalgan.



Po'lat MO'MIN
(1922 – 2004)
Birinchi kitobi «Sayrang, qushlar» deb nomlangan.



Do'stjon MATJON
(1924 – 1990)
Shoirning ilk she'ri «O'zbekiston» deb atalgan.



Qudrat HIKMAT
(1925 – 1968)
Uning «Kitob-do'stim» she'rini bolalar yaxshi bilishadi.



Aziz ABDURAZZOQ
(1926-yilda tug'ilgan) Ilk «Do'stlarimga» she'riy kitobchasi chop etilgan.



Xolmurod SAFAROV
(1932-yilda tug'ilgan) Shoirning «Yosh usta», «Nihol» kitoblari ma'lum.



Ernazar RO'ZIMATOV
(1933-yilda tug'ilgan) «Kungaboqar» nomli birinchi kitobi 1963-yilda nashr etilgan.



Jo'ra RAHIM
(1933-yilda tug'ilgan) Kichkintoylarga atalgan asarlari 1952-yildan matbuot sahifalarida nashr etib kelinmoqda.

dast ko'tarib to'kdi. Ichidan to'p etib atigi yarim quchoq pechak o't tushdi. Xaltaning ichida biror dona ham beda yo'q edi. Onam gunohsiz ekanligimga ishonch hosil qilgach, qani beda, deya Hazrat boboga yaqin bordi.

–Uyaling, shu to'rtta chirmovuq uchun kap-katta odam bir yosh bolani quvib yuribsizmi? Bu bolalar ham bir kuni aqlini tanib, katta odam bo'lishadi.

QILMANG!

–Ha, sen shunday deganingdan keyin bolang go'r bo'larmidi?! Albatta o'g'ri bo'ladi-da, – deb ovozi battar xirillagan Hazrat bobo zarda qilib chiqib ketdi. Onam nafasleri qaytib, hovlimizdagi kattakon tut daraxtiga suyanib qoldi. O'shanda ich-ichlaridan yig'lagan bo'lsalar kerak. Meni chaqirdilar. Yo'q, bu holatda onamning oldilariga sira chiqqim yo'q, borishdan uyalaman. Hammayog'im qontalash bo'lib qolgan. Otamga nima deyman, o'ylab o'ylarim-ning oxiriga yetolmasdim. Bu mening ilk bora hayotga qo'ygan nojo'ya qadamim edi... Kechasi o t a m d a n oladiganimni (5) oldim. Bu yoqda

tizzam zirqi-rab og'riydi. Qancha kun oqsab yurdim. Umr juda tez o'tib ketar ekan. Bir zumda onam aytganlariday, katta odam-ga aylanib qoldik. Oliyohda o'qidim. Agronomlik kasbini egallab qishloqqa qaytdim. Hazrat bobo haliam qorovul edi. Xo'jalikka sodiq bu odamning yoshi yetmishni qoralagan bo'lsa-da, hech kim uni qo'ldan chiqargisi kelmasdi. Keyinchalik xo'jalikka bosh hosilot bo'ldim. Hamma dalalar mening ixtiyorimga o'tdi. Hazrat bobo ham bedapoyasi bilan mening qo'l ostimda xizmat qilardi. Taqdirning achchiq o'yinidan anglaganlarim shu bo'ldiki, bedazorlar o'rilgach, aravasi bilan «kattakon» o'g'rilarning hovlisiga kuppa-kunduz kuni borib tusharkan. Hazrat bobo esa bir siqimgina moli uchun beda olishga burnini tortib kelgan bolakaylarni quvgani-quvgan. Yarim quchoq pechak o't mening xayolimda bir umr muhrlanib qolgandi...

Meni yomon yo'ldan qaytargan Hazrat boboni har zamonda eslab yuraman. Nogahon biror-bir qing'ir ishga qo'l urmoqchi bo'lsam, qo'lida o'roq dag'dag' titrab, yugurgilab kelayotgan Hazrat bobo ko'z oldimda jonlanib turadi. (6)



ODOBNI HAYOTDAN O'RGANDIM

Siz yoshsiz, oldinda katta hayot bor. Islom Usmonovning: «Bolalik – beozorlik, yoshlik – kibr-havoga berilmaslik, keksalik – donolik ekanligini hamma ham o'z vaqtida anglab yeta olmaydi», degan so'zlarini o'qib, xulosa chiqarsangiz, albatta o'zingizga foyda. Darvoqe, Islom Usmonov kim? Nega biz uni tilga olayapmiz? Yaxshi bilasizki, kimki el-yurti uchun mehnat qilar ekan, u albatta qadr topadi. Taniqli jurnalist Islom Usmonovning matbuot sohasida xizmat qilayotganiga qirq to'rt yil bo'libdi. Dastlab Jizzax viloyatining «Paxtakor» tuman gazetasida, so'ngra, «Jizzax haqiqati», «Toshkent oqshomi», «Turkiston», «Xabar» gazetalarida faoliyat yuritdi. 1995-2005-yillarda «Mehnat» va «O'qituvchi» nashriyotlarida va hozirda «Ilm ziyo» nashriyot uyida Bosh

muharrir lavozimida ishlayotgan Islom Usmonov o'ndan ortiq kitoblar muallifi, 300 dan ortiq asarlarga esa muharrirlik qildi. Aytishga oson. Buning zamirida qancha mehnat, qancha zahmat borligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Bugun oltmish yoshni qarshilayotgan ijodkor bobongizning «Odobni hayotdan o'rgandim», «Qanot va qanoat», «Barkamollik odobi» asarlari esa aynan sizlar uchun yaratilgan. Biz ana shu asarlardagi ayrim ibratli gaplarni e'tiboringizga havola etmoqdamiz:

- Bejirim kiyim yarashsa, bu fazilat, ammo mos kelmasa, unda – ro'dapo.
- O'ch bamisoli og'izdagi zahar, na yutishni, na tuflashni bilasan.
- Kimgadir ishonib katta gapirishdan o'zini tiygan odam hech qachon pushaymon qilmaydi.
- Doimo tik boqsang, ko'ngling xira tortmaydi.
- Inson doimo ovqat va uyqudan ko'ra, barkamollikka muhtoj bo'ladi.

Toshkent shahar, Sergeli tumani politexnika kasb-hunar kolleji talabalari o'rtasida uchta shartdan iborat «Bahor va Navro'z» nomli ko'rik-tanlov o'tkazildi. Tanlovning birinchi sharti bo'yicha faxrli 1-o'rinni «Tanovor» kuyiga raqsga tushgan 1-bosqich 65/ 07-guruh talabalari olishgan bo'lsa, 2-o'rinni «Lazgi» raqsini namoyish etgan 2-bosqich 05/ 06-guruh talabalari, 3-o'rinni esa «Andijon polkasi»ga o'yinga tushgan 1-bosqich 64/ 07-guruh talabalari egallashdi.

Ikkinchi shartda 2-bosqich 14/ 06-guruh yigitlari sportning «Karate» turi bo'yicha chiqishlar qilishib, karatening jozibador usullarini mohirona bajarishib, faxrli 1-o'ringa sazovor bo'lishdi.



Uchinchi shart bo'yicha esa bahoriy taomlar bo'lmish sumalak, halim, ko'k chuchvara, ko'k somsa va boshqa 32 xil milliy taomlar hamda salatlar tayyorlab dasturxon bezatishgan 2-bosqich 05/ 06-guruh talabalari 1-o'rinni egallashdi.

Tadbir yakunida faxrli o'rinlarga sazovor bo'lgan guruhlariga kollej rahbariyati tomonidan faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari topshirildi.

Muyassar QURBONOVA

SHODLIK ULASHGAN

NAVRO'Z





Aziz o'quvchim!
 Mustaqillik bergan imkoniyat tufayli biz har yili Amir Temur bobomizning tug'ilgan kunlarini keng nishonlaymiz. Poytaxt Toshkentning qoq markazida joylashgan u zotning mahobatli haykali poyidan boshlangan tantanalar butun mamlakat bo'ylab davom etadi. Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz ulug' bobomizga bo'lgan cheksiz izzat-ehtiromini izhor etishga oshiqadi. Chunonchi, buyuk Sohibqiron hazratlarining el-yurt oldidagi xizmatlari juda ulkan va beqiyosdir. Masalan:
 1) u mamlakat va xalqini mo'g'ullarning uzoq davom etgan zulmidan ozod etdi;
 2) Samarqand, Kesh, Toshkent, Buxoro va Qarshi shaharlarini qayta qurib, obod etdi;
 3) uning davrida ilm-fan, bunyodkorlik, shaharsozlik, falakshunoslik, hunarmandchilik ishlari juda rivoj topdi;
 4) mamlakatning xorijiy davlat bilan aloqalari kengaydi. Buyuk ipak yo'li qayta tiklanib, dunyo savdo va madaniyati taraqqiy etdi.
 «Temur olimlarga mehribon bo'lib, Sayyid shariflarni o'ziga yaqin tutardi».
 Ibn ARABSHOH

Hamdam SODIQOV,
 professor

O'ZGA TOG'LAR ZAHRI

Lashkar Bishruya ulamo va fuzalolar shahridan o'tib, Raboti Xon mavzeida to'xtadi. Qal'a shaklidagi katta karvonsaroy ko'zga tashlandi.

— Aholi shu joyda qaroqchilardan o'zini himoya qiladi, — dedi yo'l boshlovchi, — bu manzil qaroqchilar o'tadigan yo'lning ustida bo'lgani bois, ular o'zlari uchun lozim bo'lgan suvni olish maqsadida bu yerga keladilar.

Atrof obod va xushmanzara. Temurbekning huzuriga bir guruh oqsoqollar tashrif buyurishdi.

— Qadamlariga hasanot, ulug' amir, — dedi Oqsoqol Kadxudo, — sharofatingiz bilan o'g'ri-qaroqchilardan qutuladigan bo'ldik.

Temurbekning oldiga dasturxon tuzatishni buyurdi. Taomlardan so'ng, oqsoqollar bilan suhbat boshlandi. Qaroqchilar Boyor qabilasidan bo'lib, ular doimiy karvonlarni talab turishardi.

Keng bir tog'lik joyda istiqomat qilishadigan qaroqchilarning dehqonchilikka qulay yer-suvlari ko'p. Lekin qabila ahlining mehnatga mayli yo'q, asosan, qaroqchilik bilan shug'ullanishadi.

— Ulug' amir, bizni bu qaroqchilardan xalos eting. Yolg'iz umidimiz sizdan...

Temurning ham ko'nglida ana shu qaroqchilarni yo'q qilish, o'ziga tobe Fors o'lkasida xuddi Movaraunnahrdek tinchlik-osoyishtalik o'rnatish niyati tug'ilgan edi. U Hindiston safari oldidan ortida tinch o'lkalar qolishi zarurligini yaxshi anglar edi. Kadxudo hikoyasiga ko'ra, Boyor o'lkasiga ikki tor yo'l olib boradi. Bu yo'llar juda tor tog' yo'li bo'lgani uchun u mintaqaga kirmoqchi bo'lganlar doimiy qaroqchilar nazarida turadi. Xo'sh, qanday tadbir qo'llash kerak? Oqsoqollar uylariga umidvor holda qaytishgach, Temurbek chodiriga qadam bosdi. Shu vaqt bir ilon unga hamla qildi. Temurbek hushini yig'ar-yig'mas oyog'ida tikon sanchgandek og'riq sezdi. U ilonning qochishiga yo'l qo'yamay, oyog'i bilan uning belini bosdi. Yugurib kirgan soqchilar ilonni urib o'ldirishdi.

Kimdir Kadxudoni boshlab keldi. U ilon jasadini ko'rib, yuzi oqarib ketdi.

— Tez arqon keltiring, — qichqirdi u, — bu naycha ilon. Kadxudo soqchining xanjarini olib, Temurbekka yuzlandi. Keltirilgan arqon bilan chap oyog'ining tizzasidan mahkam qilib bog'ladi. Xanjar uchini ilon chaqqan joyiga qadadi.

Tilingan joydan qon oqa boshladi. U ana shu tilingan joyga og'zini qo'yib, zaharlangan qonni so'rib tupurdi. Bir muddat tin oldi. So'ng, yana ishini davom ettirdi.

— Badaningizdagi ilon zahri yuragingizga bormasin. Zahar chiqib ketguncha og'riqqa chidaysiz.

Temurbek o'zicha kulib qo'ydi. Negaki, shu kunga qadar yuzdan ortiq jarohat olib, og'riqlarga ko'nikib ketgan edi.

— Bu ilon rosa zaharli, chaqqan odam o'lishi muqarrar, — dedi Kadxudo qancha qonni tuflab tashlarkan.

— Demak, ajralish shu yerda ekan-da, — hazillashdi Temurbek. Keyin badanida isitma boshlanganini sezib, xavotir aralash so'radi:

— Ilon chaqqandan so'ng, kishida isitma bo'ladimi?
 — Ha, — Kadxudo boshini sarak-sarak qildi, — isitma odamni halovatini ketkazadi. Inshoolloh, siz bunday qattiq og'riqdan qutulib qolgan birinchi odam bo'lasiz.

— Men o'limdan qo'rqmayman, Kadxudo, — dedi Temurbek xomush ohangda, — qancha yillardan beri o'lim ortimdan ergashib yuradi. Men to'shakda o'lishdan ko'ra, jangda o'lishni istar edim.

— Kadxudo o'zi bilan olib kelgan xaltadan giyohlarni chiqarib, Temurbekning yarasini bog'ladi.

— Amirim, endi qimiramay yotasiz.
 Kadxudo uch kun muolajani davom ettirdi. Bemorning chap oyog'ida paydo bo'lgan shish yorilgach, isitma ham tushdi.

— Men bir narsaga hayronman, — dedi Kadxudo, — ilonlar issiq havoda tashqariga chiqmaydi. Ularning terilari yupqa, yoz faslining oftobiga duch kelsa, o'ladi. Bu tog'larda naycha ilonlar ko'p. Ammo ular issiqda tashqariga chiqishmaydi. Sizni chaqqan ilon qay tariqa issiqqa chiqdi va qanday qilib chodiringizga kirib qoldi ekan?.. — Kadxudoning so'zlari Temurbekni chuqur o'yga soldi. Hayotida unga ko'p bora suiqasdlar bo'lgan. Ammo yaqinlari davrasida uning o'limini istaganlar bo'lmagan. Chodiri atrofida sodiq tan mahramlari va sinalgan sarkardalari turgan paytda suiqasdga kim jur'at qildi ekan: O'zingdan chiqqan baloga, qayga borursan da'voga! Ichki dushman tashqisidan xavfli. O'sha oqshom Temur mahfiy darakchilar boshlig'i bilan uzoq suhbat qurdi.

Amir Temur tanbehlari:

Adovat emas, adolat kerak.
 * * *
 Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.
 * * *
 Adl-u insof bilan jahon gulshani obod bo'ladi.
 * * *
 Birliksiz — kuch bo'lmas.
 * * *
 Har ishini kengashgan holda qil.
 * * *
 Yaxshini yomon kunda imtihon qil.

Aka-ukalari, opa-singillari:

Olamshayx,
 Suyurtg'atmish,
 Jo'ki,
 Qutlug' Turkon oqa,
 Shirinbeka oqa.

Farzandlari:

Muhammad Jahongir Mirzo,
 Umarshayx Mirzo,
 Mironshoh Mirzo,
 Shohruh Mirzo,
 Jahonshoh (1367-yilda tug'ilib, yosh nobud bo'lgan),
 Ibrohim (1384-85),
 Tog'ayshoh oqabegim (uni Aka begi deb e'zozlashgan, ya'ni akaning bek qizi ma'nosida),
 Sultonbaxt oqa.

MARD O'G'IL

1370-yil 5-aprel.

Balxning Hinduvon qal'asi yonida Amir Temurning o'n olti yoshli o'g'li Umarshayx Mirzo oyog'idan yaralandi. Tabib jarroh o'qni sug'urib olar ekan, amirzodaning kiprigi ham qilt etmaganini ko'rib, uning irodasiga tan beradi.

Amir Temurga bu voqeani yetkazishganda:
 — Bahodir degani aslida shunday bo'lishi kerak!
 — deydi.



Fusunkor, jilvakor tabiat! Shu kunlarda uning ko'rk-u tarovvatiga boqing. Tafti dillarga huzur bag'ishlovchi, ona bag'ridek iliq quchog'iga oshiqing. Betakror go'zalligidan qalbingiz zavq-u shavqqa to'lib ketishiga biz kafil.

Ana shu go'zallikni asraylik. Toki bizdan keyingi avlodlar ham undan bahramand bo'lishsin. Zero, sahifamizning maqsad-muddaosi ham aynan shudir.

BIZ HAM HISSA QO'SHAYLIK

Orol dengizining qurib bora-yotgani nafaqat kattalarni, balki biz maktab o'quvchilarini ham tashvishga soladi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1961-yilda Orol dengizining maydoni 66,1 ming kv. km, uzunligi 492 km, eni 292 km. bo'lgan ekan. 2000-

yilga kelib, uning suv sathi 20 metr ga pasayib, maydoni 23,3 ming kv. km. ga tushib qolibdi.

Dengiz suv sathining pasayishi ko'plab salbiy oqibatlariga olib keldi. Orol suvi chekingan joydagi tuz ekinzorlar hosildorligini pasaytirayapti. Dengiz maydoni kichrayganligi sababli transport ahamiyatini yo'qotdi. Baliq ovlash ishlari keskin kamaydi. Agar Amudaryo va Sirdaryoning ekinlarni sug'orish uchun ketadigan suvi tejalsa, Orolning hozirgi holatini saqlab qolish mumkin bo'larkan. Bu dolzarb muammo nafaqat Orolbo'yi davlatlarini, balki dunyo mamlakatlarini ham jiddiy tashvishga solmoqda. YUNESKO tashkiloti hamda EKOSAN jam'armasi dengizni saqlab qolish uchun turli loyihalar ishlab chiqmoqda. Biz yoshlar ham Orolni qutqarish ishlariga oz bo'lsa-da, o'z ulushimizni qo'shsak, dengizimizni avvalgi holatiga keltirolmasak-da, hech bo'lmaganda, hozirgi holatini saqlab qolishimiz mumkin bo'lardi.

Mirkamol UMMATQULOV,
Jizzax viloyati, Dashtobod shahridagi
65-o'rta maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi

OROLGINAM

Uzoqlarda yig'lama momom,
To'zonlarda bo'zlama tanho.
Mo'ltirama, sochlaring to'zg'ib,
Orolginam, qurima aslo.
Sen onasan ming bir irmoqqa,
Tiriklikdan tilagin najot.
Sen aslingga qaytasan albat,
Xalqim senga bo'ladi qanot.
Bag'ri butun dengiz bo'lasan,
Kokillaring tutashar yerga.
Oltin baliq bo'yningga marjon,
Sen yashaysan biz bilan birga.
Amu va Sir oqsinlar shoshih,
Mavjlarida jo'sh ursin kelbat.
Shunda men ham suzay bag'ringda,
Zaminim ko'ksida yaltira abad!

Qizlarjon YO'LDOSHEVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov
akademik-litseyining 2-bosqich
talabasi


BU AJIB DUNYO

Jirafalar odamlardan farqli o'laroq, organizmi uchun zarur bo'lgan suv miqdorini yegan ovqatlaridan olishadi. Shuning uchun ham bir necha kunlab suv ichmay yuraverishlari mumkin.

Har kuni oldingi oyoqlarini keng ochib, uz-un bo'yinlarini egib suv ichishga erinishsa kerak-da, jonivorlari tushmagur.

TOPISHMOQLAR

Kalta qo'l, uzun oyoq,
Dumi-chi, langar tayoq.
Xaltada bolasi bor,
Xavf-xatar unga bisyor.



Kunga qarab tolmaydi,
Undan ko'zin olmaydi.



A.Navoiy nomidagi Nafis san'at
litseyining 8-sinf o'quvchisi Munisa
ESANOVA chizgan rasm.

BOBOM RANJIB QOLDILAR

Bobojonim sakson yoshni qoralab qolgan bo'lsalar-da, hali ham juda baquvvatlar. Yaratgan bog'larini ko'rsangiz, havas qilasiz. Qo'llaridan tok qaychi tushmaydi. Biznikiga mehmon bo'lib kelsalar ham tinchimaydilar. Hovli va bog'chamizdagi mevali daraxtlarning barini o'zlari ekib berganlar. Hozirgi kunda ko'pchilik shahar hovllilaridagi ekinlar, mevali daraxtlar o'rmini chim (ya'ni, sun'iy o'tlar) egallayotgani qattiq ranjitadi ularni. Chivinlarni ko'paytiradigan bu o't o'rniga hovli, darvozalar atrofiga 3-4 tup bo'lsa ham mevali daraxt ekib qo'yishsa bo'lmaydimi? Bola-chaqasining og'zi

tegib turadi-ku. Bozordan sotib olgan boshqa, daraxtdan uzib yegan boshqa-da, axir, deya kuyunadilar doim.

– Ko'chaga meva ekilsa, bolalar yeb ketishadi-ku, – deyman ajablanib.

– Ko'chaniki ko'chaga-da, bolam. Bu ham bir savob ish, bolalardan ortgani ham yetadi. Qolaversa, havoning tozalanishiga munosib hissa qo'shiladi...

Ikki yil avval hovlimizdagi xurmo daraxtining hosili yig'ilmay qolgandi. To'g'risi, xurmoga unchalik xushimiz yo'qroq. Shuning uchunmi, o'tgan yili bir dona ham hosil tugmadi. Tunov kuni akam do'stlarini hasharga chaqirib, dadam va oyim bilan maslahatlashmay xurmo daraxtini kesib tashlashdi. Qurigan daraxtning hovlida turishi bexosiyat emish.

Ishdan qaytgan oyijonim hang-u mang bo'lib turib qoldilar: «Bobongning fe'lini hali yaxshi bilmas ekansan-da. Ular mevali daraxtlarni xuddi o'z farzandlaridek ardoqlaydilar. Bu ishingdan qattiq xafa bo'ladilar endi». Shunday bo'ldi ham. Bobom akamni koyimadilar, hatto daraxt qani, deb so'ramadilar ham. Lekin har safar biznikida bir necha kun mehmon bo'ladigan bobojonim ertasigayoq uylariga qaytib ketdilar.

Endi akam bobojonimdan qanday kechirim so'rashni bilolmay, garang bo'lib yuribdilar. Siz qanday maslahat berasiz, tengdoshlarim?

Maftuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati,
Chirchiq shahri


QULOG'IDA BALDOG'I

Harir, oq libos kiyib,
Kirib keldi bahoroy.
Ona yurtim ko'rkiga,
Yana-da qo'shib chiroy.
Qir, adirlar erkasi –
Alvon rang qizg'aldog'i.
Majnunatolga bir qarang,
Qulog'ida baldog'i.
Yashil gilam to'shabdi,
Bezak qilib lolasin.
Qalbida quvonch, shodlik,
Yurtimning har bolasin.

Umida UMRZOQOVA,
poytaxtdagi 229-maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi



Insonlarning chizgan rasmlariga qarab, ularning fe'l-atvorini, ruhiyatini o'rganish, qiziqish va intilishlarini ilg'ab olish mumkin ekan. Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 4-«E» sinf o'quvchisi Nodirjon To'raqulovning chizgan rasmlaridan yumshoq ko'ngilli bolaligini, muhimi, tabiatning haqiqiy shaydosi ekanligini payqash mushkul emas-u? Uning chizgan rasmlari bilan sahifamizni bezatdik.





Dilxushbonu, sening ustozing Habiba opa Uzoqova «Tong yulduzi» gazetasini har bir sonini mehr bilan bolajonlarga ulashishini eshitib quvondik. Dunyoda dili pok ustozlar borligi uchun she'rlaridan atirgul isi ufuradigan shogirdlar bisyorligiga amin bo'ldik. Seni va ustozlaring qalbini bahoriy kayfiyat tark etmasin.

Yosh umringizni xazon
Qilmang, deymen qizlarga.
Bir alamli ertakni,
So'zlab beray sizlarga.
Bir kuni go'zal bog'da,
Gullar suhbat quribdi.
Mahmadona atirgul
O'zin ulug' bilibdi.
Gullar uni chorlashib
Bizga qo'shil deyishar.

Nazar-pisand qilmasdan
U o'ziga qayishar.
O'zi biram maqtanchoq,
Tumshug'i ham osmonda.
O'zim bitta bo'lay deb
Boqadi har tomonga.
Bog' to'ridagi soyda,
Nilufar gul ochildi.
Oftobda bo'yin cho'zib
Xushbo'y hidi sochildi.
Bog'dagi barcha gullar,
Shaydo bo'lib qoldilar.
Maqtanchoq atirgulni,
Birdan esga oldilar.
Shunda kichik g'unchalar
Shivirlashib qolishdi.
Dimog'dor atirgulni
Bir zum eslab qolishdi.
«Mening maqsadim shudir:
Yagona bo'lish orzum.
Kim menday bo'la olar
O'ylab ko'ring-chi, bir zum...»
Boqqa kichik qo'zichoq
Kirib qoldi shu zamon.

Maqtanchoq atirgul ham
Hovliqib turar hamon.
Qo'zichoq dikir-dikir
Chopib boqdi har yonga.
Maqtanchoq atirgulni
Ko'rib qoldi shu onda.
Atirgul ham shu paytda
Qaddin ko'tarib turar.
Qo'zichoq o'ynab-o'ynab
Atirgul tomon yurar.
U darhol bora solib
Og'zini katta ochdi.
Atirgulni bir yamlab
Bog'ning chetiga qochdi.
Ko'rdingizmi, bolalar,
Maqtanchoqning holi voy.
Qancha maqtanchoqlar bor
Orangizda hoynahoy.
O'zlaringizni sira
Osmonlarga qo'ymangiz.
Mening bu ertagimni
Yomonlikka yo'ymangiz.

*Dilxushbonu HAMROYEVA,
Qarshi tumanidagi 43-maktabning
9-sinf o'quvchisi*

Shohjahon RAUPOV

OYGA DO'STMISAN, UKAJON?

Esse

Buvim bilan xayolan suhbatlashib, samolyot osmonga ko'tarilganini sezmay qolibman.

– Toshkanlik o'g'lim kelibdi-ku, ha, Jahonimdan aylanay, bo'yaringga qoqindiq, – buvim meni quchoq ochib kutib olar, mehrini boshimdan sochqidek sochardi. – Qosh-u ko'zlari, kipriklariga yuzta qiz bog'langan-ku, buni! Xuddi otasining o'zi-ya... – Dunyoda mening buvimdan mehribon ayol topilmasa kerak?!

Choshgohda qishloqqa kirib bordik. Buvim odatdagidek suyunib kutib oldilar. Akamning yo'qligiga ajablanib, Shohruhga nima bo'ldi, nega kelmadi, deb qayta-qayta so'radilar.

– Akamning o'miga men keldim-ku, buvijon, sizga o'zim qarayman, – otam ham, buvim ham so'zimdand ajablanib, meni endi ko'rayotgandek bir-birlariga tikilib qoldilar. Buvim:

– Qani, yonimga kel-chi, – deya jilmayib bag'rilariga bosib, peshonamdan o'pib duo qildilar.

...Kechqurun ammalarim kelishdi. Davra qurib o'tirdik. Bunday damlar buvim uchun tantana, men uchun bayram, unutilmas xursandchilik edi. O'zimni erkin sezardim. Uzoqdan kelgan mehmonligim yodimdan chiqar, bexos mezbonga aylanib, o'zimni hovlining egasi, buvimning yordamchisidek his etardim. Shu yerda doimiy yashagim kelar, har bir daraxt bilan gaplashib, po'stlog'ini silab-siypab qo'yardim:

– Kutib tur, yozda kelaman! – der edim o'rikkā.

– Xafa bo'ldingmi, qani, bir kulchi! – olma so'zlarimni eshitsu, so'zlarim unga yoqsa, oppoq gullaydi deb o'ylandim. Qahraton qishda olma muz qotib indamay turaverardi.

Ko'milgan toklar, anorlar bilan so'zlasholmasdim. Ular meni eshitmaydi, tuproq ostida uxlayapti deb o'ylandim...

– Akang ikkoving tezroq ulg'ayib, qo'limdan omonatlarini olmasalaring, ko'zimni yumolmayman, – deb buvim qayta-qayta takrorlardilar.

– Xo'p, ozroq kutib turing, akam tuzalsa, aytaman, baribir u kelolmaydi, – deb buvimni tinchitgan bo'lardim-da, tashqariga oshiqardim. – Siz qo'shig'ingizni eslab turing, jo'ralarim kutib qoldi, ozroq yaxmalak uchay...

Bir hafta shu saylda o'tib ketdi. Buvimga o'g'il bo'lgan o'sha onlar nazarimda meni ulg'aytirdi. Ba'zida yetti bolorli uyda yoyib qo'yilgan uzumning qoraygan, chirigan donalarini terayotib, buvim qo'shiq xirgoyi qilar, bunday paytlarda uni jimgina tinglab turardim. Shu paytgacha eshitmaganim – ajib ohanglar bir maromda quyilib kelaverardi:

*Kosa-kosa suv icharman,
Tor yuragim kuydi, deb.*

*Har zamon uydan chiqarman
O'tajoning keldi, deb...*

Qo'shiq so'zlarini ichimda takrorlashga ulgurmay, yana yangisi boshlanardi:

*O'lim buzdi makonimni,
Qurib qo'ygan do'konimni.*

Yig'lab qayga bosh urayin,

Qayirdi nav-niholimni...

Shu taxlit buvim uzoq aytardilar. Turli tugunchalar, quroq ko'rpachalariga boy buvimning ichi to'la qo'shiq, maqol edi. Bahorda qirlarni ko'rganmisiz? Buvijonim tikkan quroq ko'rpachalarini to'shaganida, xona charog'on tortib ko'zim quvnar, ustida dumalagim kelardi. Ha, yana tugunchalar...

– Ochaymi? – deb menga sirli tikilib turardilar. So'ngra, bir tugunni ochib, shoyi matolar ichidan bir dasta pul chiqarib:

– Buving endi bitta tugunni ochdi, ma, buni otangga ber, velosiped olib bersin, – deb meni hayratga solardilar.

Birgal:

– Sandiqchalarda nima bor? – deb akamdan so'raganimda, u:

– Boylik, bobomdan qolgan xazina, – deb javob berdi. – Sen buni tushunmaysan, buvimning otalari Buxoroning katta boylaridan, ismlari Bo'ronbek bo'lgan...

Yillar o'tib «xazina»ni akam topdimi, yo'qmi, bilmayman-u, ammo bugun eski hovlimiz, buvim haqida eslar ekanman, akam aytgan xazinani topgandekman.

Haqiqiy xazina buvim, buvimning o'g'itlari ekan. Qishloqdagi uyimiz, olis bolaligim meni hamon chorlab turadi. Ishonamanki, men yana o'sha nurli manzilga, bolalik xotiralariga, buvimning mehri qolgan aziz qishlog'imga albatta qaytaman...

Tamom



YAXSHILIK

Munavvar hislardan yashnadi dilim,
Ko'ngil osmonida yulduzim porlar.
Charog'on yulduzga uzataman qo'l,
Nogahon u meni bag'riga chorlar.

Hayotdan zavqlanib ketaman shu dam,
Nurga chulg'anaman – dilda ajib his.
Ko'ngil oziqlanar, dil olar orom,
Mehr toblanadi shu'lada nafis.


Yulduzlar zaminni nurga qoradi,
Malham bo'lar hatto dard-g'amlariga.
Yulduz dil yoradi, ko'ngil yoradi,
Dunyoning eng yaxshi odamlariga.

*Nodira ABDULLAYEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi
23-maktabning 9-sinf o'quvchisi*

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

– Xat? – juda sekin qaytalab so'radi professor MakGonagall yana devor ustiga chiqib o'tirar ekan. – Muruvvat qiling, Dambldor, nahotki rostdan ham sodir bo'lgan voqeani xat orqali tushuntirib bera olaman, deb o'ylasangiz? Bu odamlar Garrini hech qachon tushunmaydilar! U mashhur odam bo'lib yetishadi, hatto afsonaga aylanadi. Mabodo, bugungi kun tarixga go'yo Garri Potter kuniy kirsa, hayron bo'lmayman! Uning to'g'risida kitoblari yoziladi, dunyoda har bir bolakay uning ismini biladi!

– Ayni haqiqat, – gapiga qo'shildi Dambldor, professorga o'zining qora ko'zoynagi ustidan g'oyat jiddiylik bilan qarar ekan. – Va bu har qanday bolaning boshini aylantirish uchun yetarli bo'ladi: u yurish va



gapirishga o'rganguniga qadar shuhrat topadi! U aynan nima uni shunchalar mashhur etganini hatto eslamaydi ham. Mabodo, u to katta bo'lib va o'z shuhrati yukini eplashiga qadar shu yerda, bizning olamdan nariroqda yashaydigan bo'lsa, uning o'zi uchun naqadar yaxshi bo'lishini nahotki o'zingiz ko'rmayotgan bo'lsangiz?

Professor MakGonagall shosh-gancha keskinroq nimanidir aytishga og'iz juflagandi, biroq, fikridan qaytdi, chuqur nafas oldi-da, nafasini rostladi.

– Ha... ha, albatta, siz haqsiz.

Lekin ayting-chi, Dambldor, bola bu yerga qanday keladi?

U suhbatdoshining ridosiga, go'yo to'satdan uning tagida Garrini yashirib olgan degan fikr xayoliga kelgan

kabi diqqat bilan qaradi.

– Uni Xagrid olib keladi.

– Sizningcha, bu... Bunchalar mas'uliyatli vazifani Xagridga ishonib topshirish aqlga to'g'ri keladi, deb o'ylaysizmi?

– Unga o'z hayotimni ham ishongan bo'lardim, – oddiygina javob qaytardi Dambldor.

– Uning sizga nisbatan sadoqatini shubha ostiga qo'yayotganim yo'q, – istamaygina bazo'r dedi professor MakGonagall. – Biroq, uning havoyi va yengiltakligini inkor eta olmassiz, axir. U... U yoqda nima bo'layapti?

Tungi jimjitlikni momoqaldiroqning xira gumburlari buzdi. Ularning tovushi tobora balandlashardi. Dambldor bilan MakGonagall yaqinlashayotgan chiroqlar nurini izlab, zulmat qoplagan ko'cha tomon tikilishardi.

Davomi bor.

*Gulchehra SA'DULLAYEVA
tarjimasi*

«OYIMNING XAVOTIRLARI ORTDA QOLDI»

Anvarbek AZIZOV 11 yosh. Sportning karate turi bo'yicha muntazam shug'ullanadi. Shahrimizdagi «Azamat Karim» karate sport klubi va terma jamoa a'zosi. U jigarrang belbog' sohibi, 4 karra O'zbekiston chempioni, 4 karra O'zbekiston kubogi g'olibi va sovrindori. Shuningdek, Anvarbek klub ochiq chempionati va kubogi g'olibi, 2007-yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan «Toshkent Open» turniri g'olibi hamdir. Chempion tengdoshingiz Hamza tumanidagi 255-maktabning 7-«V» sinfida o'qiydi.

Kichik chempion Anvarbekni murabbiylari intiluvchan bola deyishadi. Sababi, u besh yoshidan boshlab karate bilan shug'ullanadi. Uyda ham, mashg'ulotda ham tinimsiz harakat qilib, ko'ksini shoda medallar bilan bezab yurishni xush ko'radi.

Men Anvarbekni poytaxtimizdagi «Jar» sport sog'lomlashtirish maskanida o'tgan karatening shotakan turi bo'yicha O'zbekiston birinchiligi va chempionati musobaqasida uchratgan edim.


U tatamiga dadil qadamlar bilan chiqib kelganida, ko'plarni hayratlantirgandi. Karatening

qiyin bahsi katada raqibi bilan bellashar ekan, ustozlari o'rgatgan mahorat unga qo'l keldi. Natijada hakam Anvarbekni g'olib deb topganida, u beixtiyor o'zini mag'rur his etdi. G'alabasini qutlash uchun tatamidan chiqishi bilan oq,

ota-onasi olqishlar bilan bag'rini to'ldirishdi. Baribir g'oliblik sururi yaxshida. Hamma chempionni qutlayapti, havas qilyapti. Ularning cheksiz quvonchlariga men ham sherik bo'lib, Anvarbekni g'alaba bilan tabrikladim.

– Anvarbek, sportchi bo'lish yaxshi ekanmi? Qarang, yaqinlaringiz siz bilan faxrlanishyapti. Qanday qilib karatenni boshladingiz?

– Bir kuni dadam bankka ish bilan borgan ekanlar. O'sha bankning ro'parasida «Azamat Karim» klubiga qatnaydigan bolalarni ko'rib, havas qilibdilar. Uyga kelib, oyimga: «Ertaga Anvari sport klubiga olib boraman», debdilar. Oyim bo'lsa: – Voy, qo'ying, o'zi salga shamollasa, kechasi yo'talib chiqsa, bir oyog'im dorixonadan uzilmayapti-ku, siz bo'lsangiz, bolamni yana qiynamoqchisiz-a?... – deb kuyunibdilar. Baribir dadam sport bolani



chinqitiradi, deb qat'iy turib oldilar. Ertalab klubga bordik. Zalda bolalar mashg'ulotlar bilan band ekan. Mashg'ulot tugashini kutinglar, deb murabbiy bizga imo qildi. Dadam bilan mashg'ulot tugashini kuzatib o'tirdik. Oq kimono kiygan, yashil, qizil, sariq belbog'li bolalar shunday mashqlar qilishardiki, ular xuddi kinolardagi sportchilardек tuyulishdi, menga. Ikki soatlik mashqlarning tugaganini ham sezmay qolibmiz. Bizga Anvar aka Ro'ziyev mashg'ulotlar jadvalini aytdilar.

– Sportni sevish kerak, u juda katta mehnat, – dedilar. Hozir olti yildirki, ana shu mehnat bilan chinqib yuribman. Oyimning xavotirlari ortda qoldi. Murabbiyimiz Anvar aka bizni yaxshi ko'radilar. Klubga kelgan har bittamizni kuchimiz nimalarga qodirligini sezadilar. Chempion bo'lib yurtimizning turli shaharlarini ko'rdim. Karatechi degan nomni oqlayapman. Hozir O'zbekiston terma jamoa a'zosiman. Qora belbog' sohibi bo'lishimga bir pog'ona qoldi, xolos.

Bolam sportchi bo'lsin, deb yelib-yugurayotgan Feruza opani Anvarbekning ustozlari hazillashib, «Qora belbog'li ona» ham deyishadi. Onasi ham sportchi ekan-ku, deya hayron bo'lmang.

O'z farzandlarining kamolga yetkazib, yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shayotgan bunday jonkuyar volidalarni yana-da e'zozlagingiz keladi.

Dadasi Sur'at aka ham o'g'lining har bir musobaqasini video tasmlarga muhrlaydi. Bolasining jahon chempioni bo'lishini juda istaydi. Biz ham Anvarbekning otasini duolari ijobat bo'lsin, deya yaxshi niyat qildik. Axir yaxshilikning bir kuni mukofoti bor-da.

Ma'mura MADRAHIMOVA

«TAYOTA» OLGAN KAKA

Kaka futbol bo'yicha Braziliyaning eng yoqimtoy va sermahsul o'yinchisi, jahon chempioni, 2007-yildan dunyoning va «yashil qit'a»ning eng yaxshi futbolchisi, ya'ni oltin to'p sohibi, Yevropa super kuboglari g'olibi, Italiya chempionidir. O'tgan yilgi klublar o'rtasidagi jahon chempionatida «Milan» jamoasi bilan g'alaba qozonib, «Tayota» avtomashinasi sohibiga aylangan.

Uning asli ismi Rikardo Izekson dus Santus Leyte. Kaka uning bolalikda olgan nomidir. Ukasi Radrijo akasini Rikardo deya olmasdan, «Kaka» deya chaqirardi. Keyinchalik Rikardonning o'ziga ham bu nom yoqqanligi sababli, hozirgacha uni shu nom bilan ataydilar.

Kaka 1982-yil 22-aprelda Braziliya shahrida ziyolilar oilasida tug'ildi. Uning otasi muhandis, onasi matematika o'qituvchi bo'lib ishlaydi. Kaka mashhur braziliyalik futbolchilarga o'xshab (Pele, Ronaldinio) mahalla ko'chakuyilarida to'p surmagan. U o'ziga to'q mahallaning bolasi bo'lganligi bois, ota-onasining xohishi bilan tennis maktabiga boradi. Ammo Kaka o'zida tennisdan ko'ra, futbolga qiziqishi borligini bilardi. Shuning uchun maktabdan bir zayl qochib, futbol maydoniga oshiqardi.

Bir kuni Kakaning tennis o'yinini tomosha qilish uchun kelgan otasi uni futbol maydonida

ko'radi. Avvaliga, otasi qattiq g'azablangan edi. Lekin uning to'pga bo'lgan munosabatini ko'rgach, o'g'lidan tennischini chiqmasligini sezadi. Uni sakkiz yoshida Braziliyadagi mashhur «RIVELLINO» futbol akademiyasiga olib boradi. 11 yoshida u «San-Paulo» klubida o'ynay boshlaydi.

Sho'x va erkato'y Kaka futbol maktabida ham o'zining shumligini «ko'rsatish»ga ulguradi. Hali professional futbolchi sifatida faoliyatini boshlashga ulgurmagan Kaka suy havzasiga yiqilib, umurtqa pog'onasini jarohatlaydi. Baribir futbolga bo'lgan cheksiz mehr uni oyoqqa turg'azdi.

Qadrli o'quvchilar! Bilasizmi, mashhur futbolchilar orasida Kaka eng savobtalab insondir. Shuning uchun ham u topgan pullarining o'n foizini xayriya ishlariga sarflar ekan. Kakaning «Mehribonlik uylari»ga, kasalxonalariga, maktablarga ko'rsatgan muruvvatidan ko'pchilik bahramand bo'lgan.

– Shifo topishim haqiqiy mo'jiza edi, axir men yoshligimdagi sho'xligim, beboshligim tufayli bir umr nogiron bo'lib qolishim mumkin edi-da, – deya eslaydi u.

Sherali NAMOZOV,
O'zDJTU talabasi



LOLAQIZG'ALDOQ

Lolaqizg'aldoq bamisoli iffatdan libos kiyib, barchaning nazarida or-nomus siymosi-la gavdalangan, jilvakor bo'stonning xushro'y malikasidir. Lolaqizg'aldoq nigohida ma'yuslik ruhi yashiringan ma'suma. U betakror go'zallik timsoli. Alvon rangini mehr-muhabbatdan olgan hur xilqat u. Lekin shunday bo'lsa-da, bu chamanzorda qabohat, razolat, jaholat kabi illatlar tom ma'noda hukm suradi. Bu gullarda har bir tikiluvchi nigohdan cho'chib yashash naqadar qiyin... Bu nigohlarning birida hayrat, birida nafrat, yana birida esa hasad bor. Har yerda tosh-u tarozi bo'lgani kabi bu yerda ham shunday. Ular «hayot» mezonning bir pallasiga qizg'aldoqni, ikkinchi pallasiga esa adovat, baxillik, johillik kabi yovuzliklarni qo'yishadi. Lolaqizg'aldoqning nozik tanasiga ilon misol chirmashib olgan bu hislar undan og'ir keladi. Lekin ana shunday oniy lahzalarning birida gulshanga allaqayerdan issiq taft urilayotgandek bo'ladi. Qizg'aldoq ana shu taft urilayotgan tarafga qarab bor kuchi bilan intiladi. Qabohat botqog'idan chiqib ketishga urinadi va buning uddasidan chiqadi. U intilgan taft esa ona tabiat quchog'iga olib chiqadi. Tevarak yam-yashil, qushlarning shodon qiyiqirqlari atrofni tutgan. Birdan qizg'aldoq unga kimdir mehr bilan boqib turganini, yuzini qandaydir iliqlik bilan allakim silayotganini his etdi. Keyin esa yana yuqoriga qarab intilaverdi. Nihoyat, u ko'rdi, ko'ra oldi, his eta oldi. Bu mehribon boboquyosh edi. Qizg'aldoq unga gulshanga burkangan zulmat qaridagi sitamlarni, g'amlarni birma-bir so'zlab berayotganday edi...

Quyosh esa go'yoki qizg'aldoqning alamlarini, dardlarini tushunganday, uning yuzlariga qo'ngan ko'z yoshlari misolidagi shudringlarni asta arta boshlaydi. Qizg'aldoq bu azoblarga bardosh berolmasdi. Nihoyat, u yuzida tushkunlik alomatlari bilan bu fonyi dunyoni, ona tabiatni qadoq qo'llarida tark etdi. Bu dunyolarga tortgan xo'rliklari yuragining tubida chuqur iz qoldirib, qora doqqa aylandi. Ha, u haqiqatan ham hayot so'qmoqlarining zardobli mashaqqatlariga dosh berolmagan orzu unga armon bo'lib qolgan bokiralik siymosi.

Nargiza RAHIMJONOVA,
A.Navoiy nomli Respublika Nafis
san'at litseyining 11-sinf
o'quvchisi



Chirchiq shahrida bir maktab borki, u yerga borsangiz, sehrlil olamga kirib qolganday bo'lasiz. Bu Chaykovskiy nomli 15-bolalar san'at maktabidir. Maktabda har yili 1-sinf o'quvchilari yarim yil ichida o'rgangan bilimlarini sahnada namoyish etib, o'zlari tanlagan musiqa asboblari kuy ijro etishar ekan. Bu yilgi shunday tadbirda qatnashib, qo'llarida sehri bor rubobda kuy chalayotgan bolalar bilan tanishdik.

«Oq terakmi, ko'k terak?», «Yallama yorim yallola», «Qilpillama» deysizmi, ularni rubobdagi jarangini bir eshitsangiz edi... Rubobini qo'lidan qo'ymaydigan Javlon Siddiqov esa o'zbek xalq kuyi «Qashqarcha»ni ijro etdi. Uning ustozlari Abdunazarov shogirdlarining yutuqlaridan mamnun.

Bilasizmi, bugunning bolasi faqat maktabda namunali o'quvchi bo'libgina qolmay, turli to'garaklar va sport mashg'ulotlariga qatnashishi, xullas, vaqtini behuda o'tkazmasligi zarur. Qibray

tumanidagi 16-umumta'lim maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi, qahramonimiz Javlon Siddiqov ham buni yaxshi tushungan ko'rinadi. U maktabda ham o'zining tirishqoqligi bilan ajralib turadi. «Garchi xatolarsiz va chiroyli husnixat bilan yozish boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun biroq qiyin bo'lsa-da, Javlon 2-sinfligidayoq maktabda o'tkazilgan diktant yozish Olimpiadasida 1-o'rinni egallagan. She'r yodlash uning uchun vazifa emas, ifodali o'qish bo'yicha ham sinfda unga yetadigani yo'q», deya ta'riflaydi o'z o'quvchisini sinf rahbari E'zoza Sodiqova.

Javlonbekning bir emas, ikki ustozlari bor. Ulardan biri bu ziyarak shogirdning qo'lga qalam tutgan bo'lsa, biri rubob tutgan. Bugun ilk muvaffaqiyatga erishgan, musiqa alifbosini o'rganayotgan bu bolalarimizning ko'zlariga boqib esa ularning kelajaklari chaq nab turgan ko'zlariday porloq bo'lishini tilaganday keladi.

Sayyora
JO'RAYEVA

BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

Hayotdagi shiori:

O'qib, izlanib, doim olg'a intilish.

Yoqtirgan fani: adabiyot, tarix.

Burji: sunbula.

Sevimli kitobi: Tulepbergan Qayıpbergenov asarlari.

Sevimli taomi: qaynatma sho'rva, kabob.

Sevimli sport turi: voleybol.

Yoqtirgan rangi: qizil.

Yaxshi ko'rgan bayrami: «Yangi yil».

Filmi: «Titanik».

Multfilmi: «Shrek».

Kelajakdagi orzusi:

Elning sevimli san'atkori bo'lish.

Nazokatxon TOJIBOYEVA



Azima Davletmuratova 14 yoshda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtako'pir tumanidagi «A.Xojalenesov» nomli musiqa maktabi o'quvchisi.

«Osiyo taronalari» festivalida 3-o'rin (2006-yil), Qoraqalpog'iston «Jastalant iringaklari» ko'rik-tanlovida 1-o'rin (2007-yil), 2007-yilda «Yangi avlod» Respublika bolalar ijodiyoti festivalining «V» guruh an'anaviy ijro yo'nalishi g'olibasi.

QALDIRG'OCHNING YAXSHILIGI



Har yili qaldirg'ochlar uyimiz ayvoni burchagiga in qurishadi. Oyijonim bundan xursand bo'ladi. Bir gal u kishi menga qaldirg'ochning insonlarga qilgan yaxshiligi haqida gapirib berganlarida, ularga yana-da mehrim ortdi.

– Kunlarning birida ilon arini chaqib, eng shirin go'sht topib kelishni buyuribdi. Ari inson bolasini chaqib, uning go'shti shirinligini aniqlabdi-da, bu to'g'rida qaldirg'ochga maqtanibdi. Qaldirg'och: – Tilingni ko'rsat, U xabarni yetkazolmay g'ung'illayveribdi.

– Nima demoqchi u? – so'rabdi ilon.
– Qurbaqaning go'shti shirin ekan, deyapti! – javob beribdi qaldirg'och.
Ilon uning niyatini fahmlab, dumini uzib olibdi. Shundan buyon qaldirg'ochning dumi ayro, ilon esa qurbaqani ovlaydigan bo'lib qolgan ekan.

Qadrlil do'stlar!

Qaldirg'och uyingizga in qursa, aslo buza ko'rmang! U bizning do'stimizdir.

Shohsanam NISHONOVA



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 53323
Buyurtma N: J 5038

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va
sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Sayyora
JO'RAYEVA